# Yaratilayotgan yangi ishlanmalarni ishlab chiqarishga tadbiq etish

Ma’lumki, davlat rahbarining 2020-yilda 31-yanvar Murojaatnomada belgilangan 4 ta fan yo’nalishi bo’yicha olimlar bilan bo’lgan uchrashuvida soha bo’yicha qilinayotgan ishlar, muammolar, ularning yechimlari to’g’risida gap bordi. Uchrashuv so’nggida ushbu sohalarni rivojlantirish maqsadida Fanlar akademiyasiga qarashli ilmiy-tadqiqot muassasalarini iste’molchi tashkilotlarga biriktirib berish, olimlar bilan iste’molchi tashkilotlar o’rtasidagi aloqalarni muntazam aloqasini ta’minlash bo’yicha topshiriqlar berildi.

Shunga ko’ra, O’zR FA Genomika va bioinformatika markazida “O’zto’qimachiliksanoat” uyushmasi hamda “O’zpaxtasanoat” aksiyadorlik jamiyati rahbarlari ishtirokida uchrashuv o’tkazildi.



Uchrashuvning asosiy mohiyati olimlar tomonidan yaratilayotgan yangi ishlanmalarni moliyalashtirish orqali ishlab chiqarishga tadbiq etish, bu borada mavjud muammolarni hal etish va iste’molchi tashkilotchilar hamda olimlar o’rtasidagi aloqalarni doimiy yo’lga qo’yishdan iborat bo’ldi.



